

shaharlarida amalga oshirildi.

Madaniy-oqartuv ishida muzeylar o'ziga xos o'rinni egallab keldi. Tadqiq etilayotgan davrlarda Surxondaryo viloyatlarida jami 2 ta, ya'ni Termiz shaharida o'lkashunoslik muzeylari faoliyati yo'lga qo'yilib, sohalar bo'yicha muzeylar tashkil etish ishi esa e'tibordan chetda qoldirildi. Tadqiq etilayotgan yillarda Surxondaryo viloyati o'lkashunoslik muzey 1933 yilda [9,B.311] tashkil etilgan

bo'lib, mazkur muzeylarda ish yuritishning asosiy mazmuni, markscha-lenincha mafkurani targ'ib etadigan ko'rgazmalar namoyish etishdan iborat bo'ldi. Har bir soha rivojini ta'minlovchi asosiy omillardan biri mutaxassis kadrlar masalasining qay darajada ijobiy hal etilishiga bog'liqdir. Tadqiq etilayotgan davrda madaniy-oqartuv muassasalari faoliyati pastligi ko'p jihatdan kadrlar masalasiga borib taqaladi.

Foydalinilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Nurmuhamedova M.O'zbekistonda ma'daniy-ma'rifiy ishlar.–T.: O'qituvchi, 1993. – B.47; Qizil O'zbekiston. 1947-yil 13-mart.
2. Surxondaryo viloyati Sherobod davlat arxivi. Fond-54,1- ro'yxat,5-ish, 9-13 varaqlar.
3. O'zMA, R-837-fond, 33-opis, 2556-yig'ma jild, 270-271 varaqlar.
4. O'zMA, R-837-fond, 33-opis, 2556-yig'ma jild, 271-272 varaqlar.
5. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 454-fond, 1-ro'yxat, 11-ish, 12-varaq.
6. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 454-fond, 1-ro'yxat, 11-ish, 15-16-varaq.
7. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 89-fond, 5-ro'yxat, 8-ish, 61-varaq.
8. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 89-fond, 1-ro'yxat, 22-ish, 28-varaq.
9. Tursunov S.N. va boshqalar. Surxondaryo tarix ko'zgusida. –T., Sharq, 2001. –B. 311.

TERMIZ – ROSSIYA IMPERIYASINING ISTEHKOMI

Raimov Mamasoat Safar o'g'li,

Termiz davlat universiteti Jahon tarixi kafedrası o'qituvchisi.

mamasoatr@gmail.com

Anotatsiya: Tarixiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki Rossiya imperiyasining tayanch nuqtalariga aylangan Chorjo'y va Karki keyinchalik rus qushinlariga Pattakesar qishlog'ini, dastlab chegara istehkomiga aylantirish muljali bilan, egallash imkonini berdi.

1893-yil 15-yanvarda Buxoro amiri Abdulahadxon Sankt-Peterburgga chaqirib olindi. Amir u yerda rus qo'shinlarining afg'on-buxoro chegarasini egallashiga rozilik berdi. Ayni mahalda u mahalliy beklarga rus hukumati vakillariga tula ravishda ko'maklashishni buyurdi. Balki shu sababdan Termiz shahri azal-azaldan jahon tarixchilari va olimlari, ulug'allomalarning diqqat-e'tiborini o'ziga tortib kelgan.

Kalit so'zlar: Markaziy Osiyo, Eski Termiz, "Madinat ul-rijol" (Mardlar shahri), Chag'onrud, Rossiya imperiyasi, Pattakesar, 13-Turkiston muntazam bataloni.

Annotation: Historical studies show that Chorjoi and Karki, which became the main points of the Russian Empire, allowed the Russian troops to occupy the village of Pattakesar, initially with the aim of turning it into a border fortification.

On January 15, 1893, the emir of Bukhara, Abdulahad Khan, was summoned to St. Petersburg. There, Amir agreed to the occupation of the Afghan-Bukhara border by Russian troops. At the same time, he ordered the local begs to fully assist the representatives of the Russian government. Perhaps for this reason, the city of Termiz has always attracted the attention of world historians and scientists, great scholars.

Key words: Central Asia, Old Termiz, "Madinat ul-Rijal" (City of Heroes), Chaganrud, Russian Empire, Pattakesar, 13th Turkestan regular battalion.

Аннотация:

Исторические

исследования показывают, что Чорджой и Карки, ставшие основными пунктами Российской империи, позволили русским войскам занять село Паттакесар первоначально с целью превратить его в пограничное укрепление.

15 января 1893 года эмир Бухары Абдулахад-хан был вызван в Петербург. Там Амир согласился на оккупацию афгано-бухарской границы российскими войсками. При этом он поручил местным нищим оказать полную помощь представителям российского правительства. Возможно, по этой причине город Термез всегда привлекал внимание мировых историков и учёных, великих учёных.

Ключевые слова: Средняя Азия, Старый Термез, «Мадинат уль-Риджал» (Город героев), Чаганруд, Российская империя, Паттакесар, 13-й Туркестанский регулярный батальон.

1892-yil 7-avgustda Chor hukumati afg'on-buxoro chegarasiga o'z harbiy otryadlarini joylashtirish to'grisida rasman qaror qabul qildi. 1886-yildan esa Rossiya o'zining O'rta Osiyodagi ahvolini mustahkamlash uchun Amudaryo bo'ylab chegara shaharlarini astoydil mustahkamlay boshladi. Shtab boshlig'ining Turkiston harbiy okrugi qo'mondoni nomiga 1886-yil 28-oktyabrda yuborgan telegrammasida: "Buxoroni inglizlar tomonidan mustahkamlangan kuchli garnizonlar bilan Maymana va Balx tomonidan bo'ladigan taxdidlar hamda dushmanlarcha urinishlardan saqlab qolish uchun Chorjuy bilan Karkini, har birini bittadan batalyon bilan, Karkiga qo'shimcha yana yuz nafar kazakni to'plar bilan yuborib egallab olish juda zarurga o'xshaydi. Bu inglizlarning kirdikoriga qarshi jiddiy tahdid bo'ladi va, uylaymizki, Osiyodagina emas, balki umuman Sharqda ularning kuchini qirqadi",— deyilgan.

O'rta Osiyoning Angliya tomonidan haqiqatdan ham bosib olinishi borasidagi tahdid XIX asrning 20-yillaridan, Angliya hamda Sharqdagi ba'zi mamlakatlar Turkistonga ekspeditsiya, muxojirlar, sayyohlar va elchilar niqobi ostida turli ayg'oqchilarni yuborib ekspansiyani kuchaytirgan vaqtdak boshlangan.

Rossiya imperiyasining tayanch nuqtalariga aylangan Chorjo'y va Karki keyinchalik rus qushinlariga Pattakesar qishlog'ini, dastlab chegara istehkomiga aylantirish muljali bilan, egallash imkonini berdi.

1893-yil 15-yanvarda Buxoro amiri Abdulahadxon Sankt-Peterburgga chaqirib olindi. Amir u yerda rus qo'shinlarining afg'on-buxoro chegarasini egallashiga rozilik berdi. Ayni mahalda u mahalliy beklarga rus hukumati vakillariga tula ravishda ko'maklashishni buyurdi.

Buxoroning Afg'oniston bilan chegaradagi mulklarining bojxona chizig'ini aniqlash uchun Turkistondagi rus hukumati 1893-yilda Amudaryo bo'ylab yuqori tomonga yo'nalish ekspeditsiyasini tashkil etishga qaror qiladi. Uning asosiy vazifasi belgilanayotgan bojxoia chizig'ining harbiy postlar tomonidan himoyalaniishi imkoniyatlari hamda usullarini aniqlashdan iborat edi. Bu ekspeditsiya tarkibiga bosh shtab kapitani Fevralev raxbarligi ostida maxsus tekshirish guruhi kirgan edi. O'nta "Sar" paroxodi ajratilib, vazifasi ikki oy ichida Vaxshning Panj daryosiga quyilish joyigacha ko'tarilib borishdan iborat edi.

1894-yil dekabr oyi boshida chegara soqchilari Amudaryo chegara brigadasi tuzildi, shu yilning 12-dekabrida esa to'rt bo'limga bo'linib, Karki, Pattakesar, Saroy va Yulda joylashgan 31-Amudaryo chegara brigadasining dastlabki qismlari Pattakesar qishlog'i yaqiniga yetib keldi. Har bir bo'lim, o'z navbatida, otryadlar va postlarga bo'linardi. Chegara brigadasi shtabini Pattakesarga joylashtirish muljallangandi, bu yerga u 1897-yil iyulda yetib keldi. Podpolkovnik Kostevichning bildirgisi bu haqida dalolat beradi: "Siz janobi oliylariga ma'lum qilamanki, menga ishonib topshirilgan brigada shtabi doimiy qarorgoh bo'lgan Pattakesar qishlog'iga keldi". Pattakesar shtabi ikkinchi bo'limga qarardi, Uning beshta posti Sho'robda, Maymunda, Payg'ambarorolda, Pattakesarda va Ayritomda joylashgandi.

Brigada qo'mondonligi dastlabki kunlardanoq shaxsiy tarkibni joylashtirish bo'yicha ham, ma'muriy-xo'jalik masalalarida ham ko'pdan-ko'p muammolarga duch keldi. Yer uchastkalari olish hamda Pattakesarga, Chorjo'y, Yangi Buxoro va Karki kabi, harbiy

manzilgoh maqomini berish to'g'risidagi masala ayniqsa keskin kundalang bo'lgandi.

Buxoro amiri chegara soqchilari 31-Amudaryo brigadasini joylashtirishda rus qo'mondonligi hisobidan moliyalashtirilishi lozim bo'lgan shtab binolari qurilishi bilan bog'liq xarajatlarni o'z zimmasiga olishdan voz kechdi. Biroq Denov, Sherobod va Boysun beklariga ko'rsatma berish yo'li bilan kumaklashishga tayyorligini izhor etdi.

Pattakesar harbiy manzilgohining qurilishi va obod etilishida chegara soqchilari 31-Amudaryo brigadasining qo'mondoni podpolkovnik Kostevichning xizmati katta bo'lib, u Pattakesar uezd boshlig'i vazifasini ham jamoatchilik asosida bajargandi.

Bu vaqtda Pattakesar uchun asosiy muammo yana shundan ham iborat ediki, bu yerda o'troq bo'lib qolgan odamlarda sotib olish yo'li bilan yer uchastkalariga ega bo'lish huquqi yo'q edi, chunki 1888-yil 28-avgustdagi yo'riqnoma xali bu rayonga taalluqli emasdi.

Shu munosabat bilan 1898-yil 15-iyuldagi hujjat qiziqish uyg'otadi. Unda Yangi Buxorodagi Siyosiy Vakil Boshqarmasi Pattakesar aholisiga shaxsiy uylar qurish uchun yer uchastkalari sotib olishga ruxsat surab general-gubernatorga murojaat etdi. Zotan, Boshqarmada Pattakesardan oltita vasiqa bor edi.

1897-yilda rus hukumati Pattakesarning strategik holatini hisobga olib, keyinchalik yaqin atrofdagi joylashgan Eski Termiz shaxristoni — Termiz harbiy chegarasi" nomini olgan xarbiy qarorgohga asos solishga qaror qildi.

1897-yil fevralidayoq Nikolay II ning shaxsan topshirig'i bilan Petroaleksandrovsk (hozirgi To'rtko'l) dan bu yerga 13-Turkiston muntazam bata-lonini hamda 4-Orenburg kazak polkining yuz kishilik otryadini doimiy turishga ko'chirishga qaror qilingandi. Bu Buxoro amiri mulkiga tashqaridan bo'ladigan tajovuzdan saqlar hamda ularning tinchligi uchun kafolat bo'lib xizmat qilardi. Ayni mahalda, bu yerda kazarma va boshqa binolar bo'lmagani uchun, ushbu harbiy qismlarni joylashtirish muammosi tug'ilardi. Aleksandr Raevskiyning maktubi shundan dalolat beradi. Maktubda: "Bu qismlar kuchirilishining hamda Pattakesarga joylashtirilishining o'zi muxandislik idorasi

tomonidan u yerda butkul yangi binolar qurilganidan keyingina amalga oshirilishi mumkin",— deyilgan.

1897-yil aprelda Bosh shtab Buxoroga Bosh shtab podpolkovnigi Kuznesovni jo'natdi. Uning vazifasi Buxorodan Pattakesargacha bo'lgan yo'lni tekshirib, 13-Turkiston muntazam bataloni uchun Pattakesarda kazarmalar qurishga bo'sh joyni tanlashdan iborat edi. Kazaklar yuzligi hamda 13-Turkiston muntazam bataloni askarlari uchun binolar qurishga joy tanlash komissiyasi tayinlandi. Rossiya imperatorining Buxorodagi siyosiy vakiliga xabarda: "Zimmasiga mazkur topshiriq yuklatilgan podpolkovnik Kuznesov Kishmishxona qishlog'i xarobalari yaqinida, mavjud kanallar bilan sug'oriladigan joyda har qanday soliqlardan ozod qilingan "mulki xurd" deb atalmish yerlar jumlasiga kiruvchi qirq desyatnaga yaqin yer maydonini tanladi, binobarin, mazkur tanlangan joy sotib olinganidan keyingina qurilish uchun band etilishi mumkin",— deyilgan. Buxoro amiri tomonidan shu maqsadlar uchun Surxon daryosining quyi oqimi bo'ylab 9935 desyatina sug'orilmaydigan yer beg'araz berildi. Biroq kazarmalar qurish uchun yana qirq desyatina yer talab qilinardi va podsho hukumati uni mulkdorlardan sotib olishga tayyor edi.

Rus hukumatining mazkur yerlarni sotib olish niyati to'g'risidagi mish-mishlar xususiy shaxslar qulog'iga borib yetdi, ular darhol bunga e'tibor berib, davlat xazinasiga yuqoriroq narxda sotishga umid bog'lab, mahalliy aholi bilan shu yerlarni sotib olish tug'risida bitim tuza boshlashdi. Shu bone Turkiston ma'muriyati o'z tomonidan qarshi chora qullab, Yangi Buxorodagi siyosiy vakilga ushbu yerlarni o'z egalaridan adolatli narxda, ya'ni bir desyatina yerni 150 so'mgacha sotib olish tug'risida bevosita Buxoro amiridan iltimos qilishni surab murojaat etdi. Siyosiy vakil Ignatev yerlarni sotib olishga ruxsat olishda yordam berish to'g'risidagi iltimos bilan devonbegi Ostonaqul nomiga telegramma jo'natdi. Ajratilayotgan yerni baxolash uchun Buxoro hukumati Bobobek Miroxurni yubordi.

1897-yil 31-iyulga kelib Sherobod begi xuzurida harbiy idora uchuy yer sotish bo'yicha muzokara olib borildi, shundan so'ng vasiqa

Buxoroga siyosiy vakillikka hamda Kushbegiga yuborildi.

Termiz harbiy shaharchasiga 1897-yilda 4-Orenburg polki kazaklari tomonidan asos solindi. Turkiston harbiy okrugi shtabiga 1897-yil 19-dekabrda yuborilgan xabarda Termizdagi kazarmaga 4- Orenburg kazak polki yuzligi joylashtirilgani aytilgan.

Termiz harbiy shaharchasi qurilishi podpolkovnik Isaev hamda harbiy muxandis B.N.Kastalskiyga yuklatildi, shu munosabat bilan Pattakesardagi rus ma'muriyati Buxoro amiri hukumatiga ishchi yo'llashda ko'maklashish hamda B. N. Kastalskiyning mahalliy hokimiyat va aholi bilan munosabatlarida yordam ko'rsatish uchun ish davom etadigan butun vaqt mobaynida uning yonida bo'ladigan bir maxsus amaldor ajratish to'g'risida iltimos qildi.

Buxoro hukumati bu iltimosga e'tibor bilan qaradi, biroq uni zo'ravonlik bilan amalga oshirdi.

Boysun, Denov va Sherobod bekliklaridan dexqonlar ishga zo'rlik bilan haydaldi, bo'ysunmaganlar esa qattiq jazolandi.

Qurilishda mahalliy ishchilarga ikki tanga maosh berilardi. Ustiga ustak Termizdan dexqonlarning turar joylarigacha masofa 200 chaqirim bo'lib, ular o'z tomorqalari va xo'jaliklarini tashlab ketishga majbur edilar, bu esa ularning oilasini ochlikka duchor qilardi.

Kupincha dexqonlar bu mehnat majburiyatidan ozod etishlarini so'rab murojaat qilishardi: "Agar biz bu qadar olisga ketib qolsak va u yerda bir qancha kun ishlasak, ancha vaqt o'tib ketadi, yoz tugab qoladi va biz uzimizning bevosita ishimizdan—

dexqonchilikdan chalg'ib qolamiz; biz yolg'izmiz: o'rnimizni bosadigan hech kim yo'q. Boshqa tomondan esa biz davlat ishiga borishdan bosh tortishga jur'at etolmaymiz. Masofa yaqin bo'lganida, biz bajonu dil hatto tekinga ishlab bergan bulur edik".

Qurilishga ishchi yetkazib berish uchun Sherobod begi mas'ul bo'lib, u Buxoro Qushbegisi orqali ishchilar maoshiga bir tanga qo'shishni iltimos qilib chiqdi.

Termizdagi rus ma'muriyati vujudga kelgan vaziyatni hisobga olib hamda bu masalani zo'ravonlik bilan xal etib bo'lmasligini tushunib, Sherobod begining tavsiyasini qabul qildi va maoshni 2 tangadan 3 tangagacha ko'tardi. Biroq O'lka shtabi boshlig'ining 1898-yil 7-avgustdagi 7000-buyrug'i bilan 1-sentyabrdan boshlab ish xaqi yana kuniga 2 tangaga tushirib qo'yildi.

1899- yilda kazarmalar qurilishi tugallanib, ularga Petro Aleksandrovsksdan kelgan 13-Turkiston muntazam bataloni joylashdi. Ushbu kazarmalarni qurishda 13-Turkiston muntazam batalonining armiyadan bo'shashga ruxsat beriladigan quyi darajali amaldorlari ham ishtirok etishganini qayd qilish zarur.

Rus kushinlari bilan birga Termizga rus fuqaro aholisi ham kelib, yer sotib olib, shaxsiy uy qura boshladi. Shu munosabat bilan, Amudaryo brigadasi qo'mondoni podpolkovnik Kostevich fikricha, u yerda (Termizda) rus politsiya hokimiyatining vakili bo'lishi kerak edi. Narimanov, Pervomaysk, Golovanov va Tojik kuchalari orasida kazarma, shtab, tibbiy bulinma, zobitlar shtabi, cherkov, bojxona va dukonlar jadal qurila boshlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. С.Турсунов, И.Умаров, Т.Пардаев, Э.Қобилов. "Termiz tarixi" – T.: Sharq, 2001.
2. "Termiz – Buyuk yo'llar chorrahasidagi ko'hna va boqiy shahar" Albom – T.: Sharq, 2001.
3. I.T.Botirov. "Eski Termiz tarixiy manbalarda" – T.: Sharq, 2010.
4. Ибн Хордадбек. Книга путей и стран. Издание. И. Велихановой. Баку. 1986. С. 66, 68, 133.
5. Абу-л Файз Байхакий. История Маъсуда. Перевод. А.К.Арендса. М., 1969. С. 325.
6. Фиёсиддин Али. Дневник похода Темура в Индию. Перевод. А.А.Семенова. М., 1958. С. 127.